

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI RAHBARLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK KASBIY KOMPETENTLIGINI O'RGANISH MUAMMOLARI

Yormatova Umida Anvar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lif tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini shakllanishiga oid nazariy-metodologik yondashuvlarni mazmun-mohiyati tahliliy yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif tizimini takomillashtirish, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, rabbarga xos xususiyatlari.

Kirish

Boshqaruv psixologiyasi, ta'lif tizimini boshqarish muammolari O'zbekistonlik va xorijiy izlanuvchilarning ko'plab tadqiqotlari predmeti bo'lgan. Boshqaruv jarayonlarini o'ziga xos psixologik xususiyatlari ko'plab Sharq mutafakkirlari tomonidan o'rganilgan Xususan, bu boradagi fikrlar Abu Ali ibn Sino asarlarida rivojlantirildi. Ibn Sino rahbar xalqsiz bo'la olmaganidek, xalq ham rabbarsiz bo'la olmaydi, deb hisoblaydi. U o'zining «Uy xo'jaligi to'g'risida» gi traktatida boshqaruv ilmiga alohida to'xtalib, uni insondon juda katta aql, iroda va mehnat talab etuvchi juda muhim ilm deb hisoblaydi. «Insonlar jamoa bo'lib, yashashlari uchun o'zaro muloqotda, turli munosabatda bo'lishlari, bir-birlarining ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishlari va umumiy intilish, maqsadga ega bo'lishlari lozim”¹

Mamlakatimizda bu yo'nalishda bir qaror psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan xususan, G'.B.Shoumarov rahbar o'z qo'l ostidagi xodimlar 1 Ruziyev Z.R. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari. Monografiya // Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Sh.I.Jalilov. – Toshkent. Istiqlol nuri, 2016. – 332 b.; Алишер Гаффарович Муминов. Ўзбекистонда таълим тизими: ҳолати ва истиқболлари // Academic research in educational sciences. 2022. №TSTU Conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-talimtizimi-olati-va-isti-bollari> (дата обращения: 11.11.2023). bilan asosan uch xil maqsadda muloqotga kirishadi, ya'ni buyruq, ko'rsatma berish, nimanidir taklif qilish, maslahat berish uchun; topshiriqning bajarilganligi haqida «qaytar» (nazorat maqsadida) ma'lumot olish uchun; xodimlarning topshiriqni qanday bajarganligini baholash uchun boshqaruv muloqotiga kirishadi.²

Mamlakatimizning yetakchi olimlaridan E.G'oziyev mazkur muammoga ko'p qirrali yondashishga intiladi. Olim boshqaruv sohasidagi tadqiqotlarida munosabatlar psixologiyasi, jamoa rahbarining nufuzi, rahbar tipologiyasi, rahbarning maxsus qobiliyatları, boshqaruv qarorini qabul qilish va boshqalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni to'plagan. Uning boshqaruv psixologiyasi faniga qo'shgan hissasi – bu rahbar tipologiyasi va rahbarlik uslublari mohiyati, majmuasi atroflicha tahlil qilganligidir³. Oliy ta'lif muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish masalasi O.E.Hayitov tomonidan tadqiq etilgan. O.E.Hayitov rahbar psixologik kompetentligining professional, ijtimoiy-kommunikativ, ijtimoiy-informatsion, kognitiv, uslubiy-maxsus, ijtimoiymadaniy, autopsixologik komponentlarini ijtimoiy-psixologik fazilatlar va kasbiy sifatlarni klasterlash asosida takomillashtirgan, rahbarlarda psixologik kompetentlik reprezentatsiyasining differensial ko'rinishlarini tahlil qilib bergen⁴.

¹ Ruziyev Z.R. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari. Monografiya // Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Sh.I.Jalilov. – Toshkent. Istiqlol nuri, 2016. – 332 b

² Shoumarov G'.B. Rahbar shaxsiga qo'yilgan talablar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2003. – 54 b.

³ G'oziyev E.G'. Sotsial psixologiya: O'quv qo'llanma. – T.: O'zMU, 2012. -328 b.

⁴ Hayitov O.E. Oliy ta'lif muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish. Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasining avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2020. - 78 b

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

Boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha ko'plab xorijiy mamlakatlarning olimlari tomonidan rahbarga xos xislatlar, boshqaruv uslublari, ta'lim muassasasi rahbarlari va pedagoglarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga doir muammolari, ta'limdagi o'rta bo'g'in rahbarlarining kompetentligi masalalari tadqiq etilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, boshqaruv psixologiyasi masalalari, ta'lim tizimini boshqarish, rahbar shaxsiga qo'yiladigan talablar chuqur tadqiq etilganligi bilan bir qatorda rahbarlarga xos ijtimoiy-psixologik kompetentlik tushunchasiga ham ta'riflar berilgan.

Umumta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini asoslovchi xususiyatlarini amaliyatga joriy etishda tadqiqotning ilmiy yangiligi muhim hisoblanadi va ular quyidagilarda o'z aksini topadi:

- umumiyo'rta ta'lim maktab direktorlari ijtimoiy-psixologik kompetentlik darajasining reprezentatsiyasi rahbarlarning o'z faoliyatini rejalshtirish, jamoaviy maqsadga intiluvchanlik, jamoa faoliyatini tashkillashtirish xususiyatlarini differensiallashtirish hamda shaxslararo munosabatlarda bir-birini to'g'ri idrok qilish, "rahbarpedagogik jamoa-xodim" munosabatlari tizimida refleksiv empatiya va konstruktiv muloqot strategiyasini qo'llash asosida aniqlangan;
- ta'lim sohasidagi rahbar xodimlar ijtimoiypsicologik kompetentligini tizimlashtirish imkoniyati maktab direktorlaridagi ijtimoiy vaziyatga yo'nalganlik, ijtimoiy persepsiya, xodimlarning emotsiyal holatini to'g'ri baholay olish, empatiya, muloqotdagi refleksiya xususiyatlarini, emotsiyalijtimoiy savodxonligini, konstruktiv muloqot motivatsiyasini oshirish asosida optimallashtirilgan;
- ijtimoiy-psixologik kompetentlikni ifodalovchi rahbar-xodim munosabatlari tizimida boshqaruv bilan bog'liq ijtimoiy vaziyatga yo'nalganlik, pedagogik jamoada shaxslarning bir-birini tushunishi, shaxslararo munosabatlarda direktorning xodimga interaktiv ta'sir eta olish xususiyatlari va boshqaruvdagi qarorlarni qabul qilish uslubi orasidagi aloqadorlik shaxsning integrativ xususiyatlarini klasterlash asosida aniqlashtirilgan;
- pedagogik jamoada rahbar-xodim munosabatlari psixologik imkoniyatlari umumiyo'rta ta'lim maktab direktorlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishga qaratilgan "Rahbar ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish" nomli treninglar majmuuni qo'llash, ijtimoiy persepsiya hamda refleksiv empatiyaga asoslangan hamkorlikdagi faoliyat motivini barqarorlashtirish asosida rivojlantirilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqotning ilmiy yangiligi har jihatdan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan umumta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi va rahbar-xodim, pedagogjamoaning o'zaro munosabatlarini yanada takomillashuviga olib keladi. Yuqoridan keltirib o'tilgan mavzuning dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqib ilmiy tadqiqotni vazifalari belgilab olindi. Unga ko'ra ilmiy tadqiqot doirasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni tahlil qilish; rahbar shaxsi ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllanishiga oid nazariy-metodologik yondashuvlarni yoritib berish; rahbarga xos bo'lgan samarali boshqaruv faoliyatini tahliliy tavsiyalar va xulosalar asosida boyitish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Шепель В.М. Управленческая психология. – М.: Экономика, 1994, - 248 с.
2. Люшников А.Н. Стратегический менеджмент. – М.: «Юнити-дана», 2001. - 421 с.
3. Алишер Гаффарович Муминов. Ўзбекистонда таълим тизими: холати ва истиқболлари // Academic research in educational sciences. 2022. №TSTU Conference URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-talim-tizimi-olati-va-isti-bollari> (дата обращения: 11.11.2023).